

IJTIMOIY-IQTISODIY HOLAT BILDIRUVCHI FRAZEOLOGIZMLAR

Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: O‘zbek tilidagi frazeologik birliklarni mazmuniy jihatdan tasnif qilish ularning ifoda imkoniyatlarini to‘liqroq yoritadi. Ijtimoiy va iqtisodiy belgi asosida ma’lum umumiy sema orqali birlashgan frazeologizmlar ham tilimizda katta ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, sema, frazema.

Abstract: The classification of phraseological units in the Uzbek language in terms of content sheds more light on their expressive possibilities. Phraseologisms united by a certain common theme on the basis of social and economic characteristics are also of great importance in our language.

Key words: phraseologism, sema, phraseme.

O‘zbek tilidagi frazeologik birliklarni mazmuniy jihatdan tasnif qilish ularning ifoda imkoniyatlarini to‘liqroq yoritadi. Ijtimoiy va iqtisodiy belgi asosida ma’lum umumiy sema orqali birlashgan frazeologizmlar ham tilimizda katta ahamiyatga ega. Bu frazeologizmlarni ijtimoiy hamda iqtisodiy holat asosidagi guruhlariga ajratish mumkin. Bu ma’no guruhlarining har qaysisi o‘z ichida yana bo‘linadi, bo‘linish uchun frazemalarga xos farqlovchi semalarning o‘rni muhim. Ijtimoiy-iqtisodiy holat bildiruvchi frazemalar tarkibiga boshidan oshib yotmoq, tishi o‘tmaydigan, boshiga yetsa oyog‘iga yetmaydi, qo‘li yupqa, o‘ziga to‘q, bo‘yni yo‘g‘on, boshiga ko‘tarmoq, burnini yerga ishqamoq, bo‘ynidan soqit qilmoq, bo‘yniga olmoq, bo‘yniga qo‘ymoq singari iboralar kiradi. Bu guruhga kiruvchi frazemalar iqtisodiy to‘qlik, iqtisodiy yetishmovchilik, ijtimoiy yuqorilik va ijtimoiy pastlik kabi ma’nolarni anglatadi.

Yuqoridagi ikki guruhning bo‘linishi shartli bo‘lib, unda frazemalarga xos iqtisodiy to‘qlik, iqtisodiy yetishmovchilik va ijtimoiy yuqorilik, ijtimoiy pastlik hisobga olinadi. Masalan, o‘ziga to‘q iborasining ma’nosi umumiy iqtisodiy holatni bildiradi. Iqtisodiy holat bildiruvchi frazemalar ma’lum ma’no kuchaytirish xususiyatiga ega bo‘lib, ular ifodalayotgan iqtisodiy belgi o‘zaro zidlanadi:

qo‘li yupqa

qo‘li qisqa

boshiga yetsa oyog‘iga

yetmaydi

bo‘yni yo‘g‘on

o‘ziga to‘q

boshidan oshib

yotmoq

Frazeologizmlar semantik strukturasiidagi belgilarning o‘zaro zidlanishi ijtimoiy holat bildiruvchi frazeologizmlarda ham kuzatiladi. Masalan, boshiga ko‘tarmoq frazemasidagi “hurmat” semasi “boshga ko‘tarilayotgan” shaxsning ijtimoiy jihatdan

yuqoriligiga ishora qiladi. Burnini yerga ishqamoq frazemasidagi “jazo” semasi “ijtimoiy pastlik” semasiga ishora qiladi. Bo‘ynidan soqit qilmoq, bo‘yniga qo‘ymoq, bo‘yniga olmoq kabi frazeologik birliklarni “mas’uliyat” semasi birlashtirib turadi. Bo‘yniga olmoq iborasi mas’uliyatni o‘ziga olishni bildirsa, bo‘ynidan soqit qilmoq iborasi, aksincha mas’uliyatdan qutulishni anglatadi.

Boy bermoq frazemasini yo‘qotmoq leksemasi bilan bir sinonimik qatorda tursa ham, ko‘p hollarda kontekstdan iqtisodiy yo‘qotish mazmuni kelib chiqadi. Tilmoch qimorga o‘zini urdi. Omadi ketib, hovli-joyini boy berib qaynotasining uyiga ko‘chib keldi. “Ijtimoiy holat” semali FSG tarkibida “hurmat” semasiga ega bo‘lgan FBlar ham alohida o‘rin egallaydi. Boshiga ko‘tarmoq, bir so‘zi ikki bo‘lmadi, ikki bukilib, bajo keltirmoq, yerga urmoq, bir pul, bir pullik, bir pul bo‘lmoq singari FBlarni shu mikrogruphning tashkil etuvchilari deyish mumkin. Bu FBlarni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin:

boshiga ko‘tarmoq
bir so‘zi ikki bo‘lmadi
ikki bukilib
bajo keltirmoq

yerga urmoq
bir pul
bir pullik
bir pul bo‘lmoq

Birinchi guruhga kiruvchi iboralar “hurmat” belgisining yuqoriligi bilan ikkinchi guruhdagi FBlardan farqlanadi. Qon-qarindoshlik belgisi bilan farqlangan¹ leksemalarning semantik tahlili oilaviy ahvol ifodalovchi frazeologizmlarga ko‘ngli yarim, boshi ochiq, boshi bog‘liq, bag‘ri to‘la, bir yostiqqa bosh qo‘ymoq, boshini ikkita qilmoq, boshlarini qovushtirmoq kabi iboralar kiradi. Ko‘ngli yarim iborasi ham oiladagi biror yaqin shaxsning – ota, ona, farzand, er kabilarning vafot etganini bildiradi va shu bilan birga, ayrim hollarda oilaviy iqtisodiy ahvoli nochor, kambag‘al odamlarning ham ahvolini bildiradi. Oilaviy ahvol ifodalovchi frazeologizmlar ham oilaviy holatning bekamu ko‘stligi yoki yetishmovchiligi vositasida zidlanadi:

bag‘ri to‘la
boshi bog‘liq

ko‘ngli yarim
boshi ochiq

O‘zbek tilidagi ijtimoiy holat asosida birlashgan iboralar o‘z ichida o‘zaro antonimik, sinonimik, ko‘p ma’nolilik munosabatlarini ifodalaydi.

¹ Нарзиева М. Қон-қариндошлик номларининг компонент таҳлили// Ўзбек тили ва адабиёти. 1986, 5-сон.
 Саидова М. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили:
 Филол.фанл.номз....дисс.автореф. Тошкент, 1995. ва бошқ